

SHUHRATNING “OLTIN ZANGLAMAS” ASARIDA INSON OBRAZI VA MA’NAVY QARASHLAR**Mahmudova Asila Erkinovna**

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti
Filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti 3-bosqich talabasi.

Mahmudovaasila21@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20186175>

Annotatsiya. Ushbu maqolada yozuvchi tomonidan yaratilgan inson obrazining mazmuni va uning ma’naviy kamolot yo‘li badiiy-falsafiy jihatdan tahlil etiladi. Asarda qahramonlar taqdiri misolida insonning turli ijtimoiy va ruhiy holatlardagi qarashlari, urushning og‘ir sharoitlari ta’sirida yuzaga kelgan ichki kechinmalari hamda yakunda qaror topgan ma’naviy qarashlar ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Inson obrazi, ma’naviy qarashlar, sadoqat, vatanparvarlik, inson qadri.

Аннотация. В данной статье анализируется содержание созданного писателем образа человека и его пути к духовному совершенству с художественно-философской точки зрения. Произведение, на примере судьбы героев, раскрывает взгляды человека в различных социально-духовных ситуациях, его внутренние переживания под влиянием тяжелых условий войны и духовное положение, которого он в конечном итоге достиг.

Ключевые слова: Образ человека, духовные взгляды, верность, патриотизм, человеческое достоинство.

Abstract. This article analyzes the content of the image of man created by the writer and his path to spiritual perfection from an artistic and philosophical perspective. The work reveals, using the example of the fate of the heroes, the views of man in various social and spiritual situations, his inner experiences under the influence of the difficult conditions of the war, and the spiritual position he ultimately reached.

Keywords: Human image, spiritual views, loyalty, patriotism, human dignity.

Sho‘ro davri o‘zbek adabiyotining taniqli namoyandalaridan biri shoir, nosir va dramaturg Shuhratning «Oltin zanglamas» asari 1967-yilda yozilgan bo‘lib, asarda ma’rifat sohibi — o‘qituvchi degan sharaflı kasb ulug‘lanadi. Asarda insoniylik fazilati, odamiylik, insonga bo‘lgan hasad, havas, sof muhabbat va onalar bo‘lgan ehtirom yoritilgan.

Yozuvchi obrazlar orqali o‘qituvchilik kasbini ulug‘lab, o‘qituvchining qadri, salohiyati, maktabda va jamiyatdagi o‘rnini sharaflaydi. «Oltin zanglamas» romani bilan muallif o‘zbek adabiyotida ochilmagan qo‘riqqa qo‘l urdi, adabiyotimizga yangi mavzu-material olib kirdi, mamlakatimiz hayotida yuz bergan 30-yillar qatag‘oni qurbonlari hayotini qalamga oldi.

Tajribali yozuvchi roman hodisalarini teran o‘rgangani uchun har bir epizod o‘quvchini ishontiradi, qalbiga jiddiy ta’sir qiladi. Asarda tasvirlangan hayot manzaralari, insonlararo munosabatlar, ularning dialoglari, shuningdek, o‘quvchining o‘ziga xos badiiy uslubi juda tabiiy va samimiyligi bilan ajralib turadi. “Oltin zanglamas” urush yillarida yozilgan.

Bu asarda onalarga, ayolga, muallimlarga, sevgiga, insonlarning sabriga alohida urg‘u berilgan. Adib bu asarga tanlagan bosh qahramanlarning ismi ham o‘ziga mosdir. Masalan, bosh qahramon Sodiq haqiqatdan ham, ona yurtiga sodiq inson, u asar boshlanishida qizlarni ham o‘qitish oliy ma’lumotli qilish tarafdori bo‘ladi.

Asar mutolaasi davomida, qishloqning oddiy sodda yigiti va shaharning qizi o'rtasidagi muhabbat tasvirlari, maktab yillari-yu urush davrlari, onaning matonati, sadoqatli do'st, ikkiyuzlamachi insonlar, farzandsiz oila, vafodor ayol timsollari guvohi bo'lamiz.

«Oltin zanglamas» qahramoni Sodiq taqdiri haqiqatan ham romangaarzigulik. Yozuvchi Sodiqni hayotning g'oyat sermashaqqat va murakkab yo'llaridan olib o'tadi, uning boshiga ko'p og'ir savdolar tushadi. Lekin Sodiq shunchaki jafokash bir kimsa emas, u hammadan burun kurashchan shaxs. Qahramon eng mushkul vaziyatlarda ham taqdirga tan berib qo'ya qolmaydi.

Aksincha, vijdoniga gard yuqtirmaydi, ezgu ideallarga sodiq qoladi, shu ideal yo'lida mardlarcha kurash olib boradi. Ona-yurt o'g'lonining e'tiqodi – bu oltin, bu oltin etiqodning olijanoblighi, metinligi, sinovlardan g'olibona o'tib tantana qilishi, ya'ni oltinning zanglamasligi bosh qahramon xarakterining hayot falsafasini, romanning asosiy pafosini tashkil qiladi.

Asarning boshi Qodirjonning bog'dagi Aziza bilan suhbatini bilan o'quvchini qiziqitirib qo'yadi. Syujet tasvirlari orqali Azizani sho'x, shaddod ekanligini ko'rishimiz mumkin. Adib Aziza misolida ayollar va qizlarimiz matonati, bergan ahdda tura olishini isbotlab berganday go'yo. Qodir atlas ko'ylakning olovidan bag'riga tushgan uchquni kul bosgandek bo'ldi. U muhabbat girdobiga ilk bora tushgan edi va uning fikr-o'yi, shamol shopirgan o'sha atlas ko'ylak qatiga o'ralib ketgan edi. Asarning muhim jihatlaridan biri — ma'naviy qarashlarning o'zgarishi va chuqurlashib borishidir. Dastlab oddiy va kundalik tasavvurlarga ega bo'lgan insonlar urushning og'ir sinovlari orqali hayotning haqiqiy mazmunini anglay boshlaydilar.

Asarning “Oltin zanglamas” deb nomlanishi bosh qahramon Sodiqqa nisbatan aytilgan, haqiqiy oltin neki yomonliklarga duchor bo'lmasin baribir oltinligicha qoladi degan maqsadda o'xshatish bergan. Haqiqiy qahramon, haqiqiy baxt egasi Sodiqdir. Chunki hayot qozonida anchagina qaynadi kuydi yondi ammo yengilmadi. Sabr va iroda sohibi Jannatdek, ayol bilan ajrashgan bo'lsada, umrining oxirigacha unga qo'lidan kelganicha yordam bera oladigan turmush o'rtoq bor edi. Ona yurti oldidagi qilgan barcha fidokorona mehnatlariga loyiqdir.

So'nggi nafasigacha ona tuprog'iga fashistlar qadamini yetkazmasligi uchun mardona jang qildi. Haqiqiy mard o'g'lon olovlarda toblangan bizning qahramonimiz Sodiq oltindek zanglamas insondir. Asarda salbiy obraz sifatida Mirsalim, maktab o'qituvchisi ya'ni Soqiqning hamkasbi olingan, Mirsalim ikkiyuzlamachi makkor inson sifatida tasvirlanadi, namoz o'qib qolar, obro' orttirib biroz puli ko'paysa kayfu safo qilib namozni ham unitar edi. Ijodkorning tarflashicha Mirsalim ikki tili odam edi: biri ko'chga, biri uyga. Bu tilining bir tomchisi bir chelak suvni zaharlashga yetardi deydi. Bu asarni o'qishda biz Adolat xola orqali ona obrazini ham ko'ramiz mumkin. Tabiatdan halimdek yumshoq, shirin so'z ayol Adolat xola obrazida, matonatli ona tasvirini chizib bera olgan. Adolat xola faqat farzandlari Sodiq va Qodirning taqdiri haqida qayg'uradi. Uning uchinchi farzandi Jannat edi. Adolat xola Jannatni o'z qizidek yaxshi ko'rardi, u shunchaki kelin emas, uning bor dardlarini eshitadigan xolani “ona” degan juvon edi. O'zbek ayollariga mos sabr-bardoshni Jannat misolida ko'ra olamiz. Urushning oxirigacha erini sabr bilan kutganligi va Marat boshqaning bolasi bo'lsa ham uni o'z bolasidek yaxshi ko'rganligi haqiqiy O'zbek onasi shu ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, “Oltin zanglamas” asarida inson obrazi va uning ma'naviy qarashlari turli xarakterdagi obrazlar orqali chuqur va ta'sirchan yoritilgan.

Asarda Sodiq orqali halollik, mehnatsevarlik va hayot sinovlari qarshisida o'zligini saqlab qolishga intiluvchi inson timsoli, ona timsoli orqali esa cheksiz mehr-muhabbat, sabr-toqat kabi yuksak fazilatlar ulug'lanadi. Mirsalim orqali dunyoning qabih tomoni ko'rsatiladi.

Shunday qilib, asarda turli obrazlar vositasida insonning ichki dunyosi, uning hayotga bo'lgan munosabati va insoniylik, sadoqat va mehr kabi fazilatlari orqali jamiyatga ko'rsatib beriladi. Bu asarni o'qib inson o'ziga ko'p narsa olsa bo'ladi va hammaga bu asarni o'qishni tavsiya etgan bo'lar edim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shuhrat. Tanlangan asarlar 3 jildlik; 2-jild Toshkent-1980
2. Shuhrat. Roman va qissalar. – Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2019, – 760-b.
3. Shuhrat. Oltin zanglamas. – Toshkent: “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2018.
4. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. T., Fan. 2004.